

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


08 sentabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-o8 sentabr, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,777% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,712% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,712% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,510% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,486% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,486-8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi 6,719% darajasida bo'ldi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik pasaydi va 6,668% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,39% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz ko'tarilib, 4,41% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,053% (3 oylik) va 2,100% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **959,2** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **142,8** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 422** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib **12 520** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **2,98%** ni tashkil etdi.




Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



08.09.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Anor** bankda qayd etilgan – **12 530**so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 550–12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB** bankda qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 880–12 380** so'm atrofida bo'lgan.



➤ Dollarning rublga nisbatan qadri oshmoqda

Sentabr oyining ilk besh kunida dollarning rublga nisbatan kursi 81,0 dan 81,5 rublgacha ko'tarildi. 2 sentyabrda 80,6 gacha biroz pasayish kuzatilganidan keyin, dollar yana mustahkamlanib, 81,4 darajasini oshirdi, bu esa valyutaga bo'lgan talabning tiklanayotganidan dalolat beradi. USD kursining o'sishi AQSh obligatsiyalarining rentabelligi oshishi va dollarning jahon bozorida mustahkamlanishi bilan bog'liq. Rubl esa neft bozorida beqarorlik va geosiyosiy xavflar tufayli bosim ostida qolmoqda. Qisqa muddatli istiqbolda kursning 81,5 darajasidan yuqori ko'tarilishi mumkin. Investorlarga valyuta risklarini hisobga olish va global bozorlar holatini yaqindan kuzatib borish tavsiya etiladi.

➤ Rubl va yuan: oy boshida kursning minimal o'zgarishlari


Sentabr oyining boshida rublning Xitoy yuaniga nisbatan kursi tor diapazonda, ya'ni 11,0 dan 11,2 gacha o'zgarib turdi. 5 sentyabr yakunlariga ko'ra, kurs 11,2 ni tashkil etdi, bu esa 1 sentyabrdagi ochilish darajasiga mos keladi. Kursning bunday barqarorligi Rossiya va Xitoy valyuta bozorida talab va taklifning muvozanatli ekanligidan dalolat beradi. Keskin o'zgarishlarning yo'qligi ikki mamlakat o'rtasidagi yaqin savdo-iqtisodiy integratsiyaning davom etishi va tashqi iqtisodiy sharoitlarning barqarorligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Yaqin istiqbolda yangi geosiyosiy yoki iqtisodiy shoklar yuz bermasa, RUB/CNY kursida sezilarli o'zgarishlar kutilmaydi.

➤ Yevro dollarga nisbatan mustahkamlanmoqda

Sentabr boshida yevroning dollarga nisbatan kursi 1,1669 dan 1,1759 gacha o'zgarib turdi. 5 sentyabr yakunlariga ko'ra, kurs 1,1759 darajasiga yetib, 4 sentyabr kuni kuzatilgan pasayishdan keyin yevroning mustahkamlanishini ko'rsatdi. Kursning harakati makroiqtisodiy ma'lumotlar va AQSh hamda Evrozonadagi foiz stavkalari dinamikasiga bozorlarning reaksiyasini aks ettiradi. Evrozonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilanishi va AQShda pul-kredit siyosatining yumshatilishi kutilishi fonida yevroning qadri oshmoqda. Yaqin istiqbolda o'rta darajadagi o'sish tendensiyasi bilan birga davom etuvchi o'zgaruvchanlik ehtimoli mavjud.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



- Oltinning narxi tarixda birinchi marta 3500 dollarni oshirdi

Jahon moliya bozorlarida oltinning narxi yana bir bor tarixiy rekord o'rnatdi. Bir untsiya oltin narxi 3586,3 dollarga yetdi. Bu ko'rsatkich oltin bozorida birinchi marta qayd etilgan eng yuqori narx bo'lib, jahon iqtisodiyoti va geosiyosiy vaziyatdagi beqarorlik natijasida yuzaga kelgan. Yil boshidan buyon oltinning narxi 30 foizdan ortiq oshdi va u investorlarga yanada jozibador qimmatli aktivga aylandi. Ushbu o'sishning asosiy sabablaridan biri AQSh Federal zaxira tizimiga (Fed) bosimning kuchayishi hisoblanadi. Fedning yaqin oylar ichida asosiy foiz stavkalarini pasaytirishi mumkinligi haqidagi gap-so'zlar qimmatbaho metallar talabining keskin oshishiga olib keldi.


Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



- Jahon birjalarida neft narxlarini pasaydi

O'tgan hafta neft narxlarini dastlab geosiyosiy taranglik va OPEK+dan kutilayotgan qarorlar tufayli oshdi, biroq keyinchalik AQShda ishlab chiqarishning ko'payishi va zaxiralar oshishi xavfi sababli keskin pasaydi. Brent nefti bir barrel uchun 68,15 dollardan 65,5 dollarga tushdi. AQSh iqtisodiyoti zaiflashayotgani energiya manbalariga bo'lgan talabni kamaytirmoqda. OPEK+ hali ishlab chiqarish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilmagan, ammo uning oshirilishi bozorda xavotir uyg'otmoqda. Bir hafta ichida neft narxi taxminan 3% ga tushib, bu ichki bozorda benzin va neft narxlarining pasayishiga olib keladi.

TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



- Yevropada gaz narxlarini pasaymoqda

Yevropada gaz narxlarini yuqori taklif darajasi va yer osti zahiralarning deyarli to'la bo'lishi fonida pasayishda davom etmoqda. Bu bozorga qulay sharoit yaratib, yaqin kelajakda yetkazib berishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar haqidagi xavotirlarni kamaytirmoqda. Norvegiyadan gaz yetkazib berish hajmi oshgani bozorga qo'shimcha taklifni ta'minlamoqda. Shuningdek, Yevropaning shimoliy-g'arbiy hududlariga suyuqlashtirilgan tabiiy gaz hajmi ham ko'paydi. Bularning barchasi narxlarining tushishiga yordam berib, iste'molchilar uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Yangiliklar

SBC kichik biznes uchun raqamli kredit xizmatini ishga tushirdi

HSBC kichik korxonalariga mobil ilova orqali minimal hujjatlar bilan va arizalarni tezkor ko'rib chiqish imkonini beruvchi yangi raqamli kredit xizmatini taqdim etdi.

Banco Sabadell raqamli ipoteka xizmatini ishga tushirdi

Banco Sabadell to'liq onlayn platformani taqdim etdi, u orqali ipoteka kreditlari uchun arizalar berish va tasdiqlash jarayoni elektron imzolar va video maslahatlar yordamida amalga oshiriladi.

BNP Paribas Parijda innovatsion markaz ochdi

BNP Paribas Parijda bank sektori uchun sun'iy intellekt va mashinani o'rganish sohasini rivojlantirishga qaratilgan yangi innovatsion markazini ishga tushirdi. Markaz katta ma'lumotlarni tahlil qilish, moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish bo'yicha loyihalar ustida ishlaydi. Maqsad – mijozlarga xizmat sifatini va tezligini oshirishdir.

Agricultural Bank of China mobil banking uchun biometrik himoyani yaxshiladi

Iyul oyida bank yuzni va barmoq izini aniqlash bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etib, mobil tranzaksiyalar xavfsizligini oshirdi va firibgarlik holatlarining kamayishiga erishdi.